

SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA KICHIK MUSICHANING UYALASH BIOLOGIYASIGA DOIR MATERIALLAR

Boboxonov Muzaffar Ziyodullayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi.

e-mail: m.boboxonov@dtpi.uz

Raxmatov Azizbek Holiyor o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11069952>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Surxondaryo viloyatining turli ekologik biotoplarda uchrovchi kichik musichaning uyalash biologiyasi ko'p yillik kuzatuv natijalari asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: kichik musicha, biotop, sinantrop, agrotsenoz, uya qurish, qush.

MATERIALS ON NESTING BIOLOGY OF LITTLE MUSIC IN SURKHONDARYO REGION

Abstract. In this scientific article, the nesting biology of the small mouse found in various ecological biotopes of the Surkhondarya region is analyzed based on the results of many years of observation.

Key words: small songbird, biotope, synanthropus, agrocenosis, nest building, bird.

МАТЕРИАЛЫ ПО ГНЕЗДНЕВОЙ БИОЛОГИИ МУЗЫКА В СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной научной статье на основе результатов многолетних наблюдений анализируется биология гнездования мелкой мыши, обитающей в различных экологических биотопах Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: мелкая певчая птица, биотоп, синантроп, агроценоз, гнездостроение, птица.

Kirish.

Kichik musicha O'zbekiston faunasida tarqalgan kaptarsimonlar turkumining eng kichik vakili hisoblanadi. Kichik musicha juda moslashuvchan qush bo'lib, insonlardan unchalik cho'chimaydi va uning yashash joylari bo'lib turli tuman aholi yashaydigan joylar hisoblanadi.

Kichik musicha yer yuzi bo'ylab keng tarqalgan, shu jumladan Surxondaryo viloyati sharoitida ham o'z arealiga ega o'troq, sinantrop qush hisoblanadi. O'tgan asrning dastlabki o'n yilliklarida kichik musichalarni bozorlar, tegirmonlar va boshqa ko'p miqdorda ozuqa manbalari

bo'lgan joylar o'ziga jalb qilgan. Unchalik katta bo'lmagan qishloqlarda kichik musichalar qishloqning markaziy qismida ko'p uchraydi. Uning chekka qismlarida deyarli uchramaydi [1].

Kuzatishlarimiz davomida biz Surxondaryo viloyatining turli ekologik biotoplarda joylashgan aholi punktlari va agrotsenozlarida yil davomida uchratdik.

Uya qurishi. Barcha o'troq qushlar singari musichalar ham ancha erta uyalashga kirishadi. Qish iliq kelgan yillari ularning sayrashi umuman to'xtamaydi. Haqiqiy bahor havosi kelgani bilan mart –aprel oylarida kichik musichalarning sayrashlari har tomondan tez-tez eshitilib turadi.

Juftlashish juda erta boshlanadi. Ayrim juftlar butun yil davomida ham ajralmaydi.[1]. Uya qurish joyini erkak qush tanlaydi ya qulay uya joyini tanlay olgach biror joyga qo'nib olib, sayrab urg'ochisini chaqiradi [2]. Bizning kuzatishlarimizga ko'ra kichik musichalarning uyalari devorlarining yoriqlarida, daraxt shoxlarining ayrim qismida joylashgan bo'ladi. Uya materiallarini erkagi terib keltiradi, urg'ochisi esa erkagi keltirgan uya materiallarini uyaga joylashtiradi. Ba'zida kichik musichalar oldingi yil foydalanilgan yashashga yaroqli uyalardan qayta foydalanishi ham mumkin. A.I.Ivanovning ma'lumotiga ko'ra kichik musichalar uya joylarini tanlashda ancha befarq hisoblanadi. Ular odamlardan unchalik cho'chimaydi. Shu sababli istalgan qulay joylarga uya qurishlari mumkin. Bundan tashqari kichik musichalar uylarini suv quvurlarining devoriga mustahkamlashgan joylaridagi qoziqqa, omborxonalar va molxonalardagi to'sinlar orasiga, uylarning karnizlariga quradilar.

Uya joyi tanlanishidan oldin erkak qush g'uvillagan ovoz chiqarib uya qurishi uchun u bir joydan ikkinchi joyga uchib uylarning karnizlari, to'sinlar orasini sinchiklab tekshiradi.

Qulay uya joyi tanlab olingach erkak qush uya atrofida turib, g'uvillab urg'ochisini chaqiradi. Gohi-gohida tik holda balandga uchib qanotlarini keng yoyib parvoz qilib yana o'z joyiga kelib qo'nadi. Shundan so'ng urg'ochi qush uya qurish joyiga uchib ketadi va qushlar uya qurishga kirishadilar. Uya qurishda ikkala qush ham ishtirok etadi. Erkagi uya yaqinidagi hududdan materiallarni terib keltiradi. Urg'ochisi esa bu uya materiallarini uyaga joylashtiradi. Kichik musichalarning uyalari juda sodda tuzilgan bo'lib, uya materiallari uyaga juda pala-partish joylashtiriladi. Shuning uchun uyaga joylashtirilgan uya materiallarining ko'pchilik qismi, ba'zi hollarda uyaning o'zi to'liq tushib ketadi va qushlar uyani yana yangidan qurishga majbur bo'ladi.

Uya qurilayotgan joyning ostida juda ko'plab xas-xashak, kichik shoxchalar va o'simlik novdalarini uchratish mumkin.

Kuzatishlarimizga ko'ra kichik musichalarning uyalari yassi likopcha ko'rinishida, uya materiallari juda siyrak joylashgan bo'lib, uyaning o'rtacha diametri 16,8 sm, uya latogining chuqurligi 1,6 sm, uyaning yerdan balandligi 4,0 metrni tashkil etadi (1-jadval).

Tur	Uyaning joylashgan o'rni	Uyaning yerdan balandligi (m)	Uyaning diametric (sm)	Uyaning chuqurligi (sm)
Kichik musicha	Qayrag'och daraxti	3,0	15,8	1,6
	Xurmo daraxti	4,0	19	1,8
	Uzum voyishi	3,5	15,2	1,6
	Molxona shifti	6,0	18	1,7
	Ayvon to'sini	4,0	15,4	1,5
	Omborxona shifti	3,5	17,6	1,8
O'rtacha		4,0	16,8	1,6

1-jadval. Kichik musichaning uylarining o'lchamlari

Kichik musichalar uya materiallari sifatida bir yillik va ko'p yillik o'tchil o'simliklarning poyalari, daraxtlarning mayda shoxchalari va novdalaridan foydalanadi. Uya materiallari yerdan teriladi.

REFERENCES

1. Богданов О.П., Мекленбурцев Р.Н. Фауна Узбекской ССР. Т.2. Птисты ч.2.Ташкент. изд-во АН Уз ССР. 1956-157стр.
2. Мекленбурцев Р.Н. Голубиные. В. Кн. Птицы Узбекистана. Изд-во «Фан», Ташкент, 1990
3. Иванов А.И. Птицы Таджикистана. Л.-М., изд-во АН СССР, 1969.- 300 с
4. Дониёров, Б.Н., Жумабоев, Б.Е. (2011). Мусича (*Streptopelia senegalensis* L.) нинг биологияси ва экологиясига оид маълумотлар. Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг ХХВИ илмий-амалий конференция материаллари тўплами, ИИИ, 167-169